

**VOBKENT TUMANIDAGI AYRIM MIKROTOPONIMLARINING TARIXI VA TIL
XUSUSIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10045063>

Xayrullayeva Marjona Omon qizi

BuxDU o'qituvchisi

Annotatsiya: *Vobkent tumani toponimlarining lisoniy-etimologik hamda morfemik tadqiqiga e'tibor yetarlicha qaratilgan bo'lsa-da, joy nomlari haqida bugungacha amalga oshirilgan tadqiqotlar umumiy, ham lingvistik, ham geografik; tarixiy hamda lingvistik; izohli va etimologik jihatlardan tadqiq etilgan ishlar sifatida to'xtalish o'rinlidir. Shu o'rinda, Vobkent tumanidagi ayrim mikrotoponimlar tarixiga ham to'xtalishni joiz deb bildik.*

Kalit so'zlar: *toponim, qavm, urug', morfema, farmant, topoasos, nom, etimologiya, mikrotoponim.*

Noyob o'simlik va hayvonlar, qimmatbaho me'morchilik yodgorliklari muhofaza qilingani kabi tarixdan guvohlik beruvchi geografik nomlar ham himoya qilinishi, ularning kelib chiqish tarixi o'rganilishi lozim. Chunki har bir joyning tarixi va nomining kelib chiqish tarixi bor. O'zbekiston xalqining asl ajdodlari Amu va Sir oralig'ida yashagan sak-massaget, so'g'd, baqtriyaliklardan iborat bo'lgan. Uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida Markaziy Osiyoga Janubiy Sibir, Oltoy, Ettisuv, Sharqiy Turkiston, Ural daryosi bo'ylaridan aholi ko'chib kelib, mahalliy aholiga qo'shilgan, o'troqlashgan. Fanda o'zbek xalqining tarkib topish jarayoni to'rt davrga bo'lib o'rganiladi: Birinchi davr. Eramizdan avvalgi davrdan boshlab, to eramizning V asrigacha hozirgi O'zbekiston hududida, asosan sak, massaget, so'g'd, baqtriya, tohar va eftalitlar yashagan. Ikkinchi davr. VII-VIII asrlarda arablar, X asrda Qoraxoniylar deb atalmish turkiy qabilalarning bostirib kirishi va o'troqlashish jarayoni yuz bergan. Uchinchi davr, XIII-XIV asrlarda mo'g'ullar bilan birgalikda juda ko'p mo'g'ul-turk, boyovut, bahrin, totor, barlos qabilalarining ko'chib kelib, o'troqlashish jarayoni kechgan. To'rtinchi davr. XVI asr boshida Markaziy Osiyoni Shayboniyxon istilo qilganidan keyin o'zbeklarning katta guruhi Dashti Qipchoqdan Markaziy Osiyoga ko'chib kelib, o'troqlashgan. Akademik V.Shishkin Buxorodagi qishloqlarning -mitan, -duvon, -von qo'shimchalari bilan tugashini ko'rsatib, bu qo'shimchalar aholi maskani, qo'rg'on ma'nosida ekanligini, ammo bu qo'shimchalar forsiy yoki turkiy xalqlar tilida yo'qligi, shu sabab nomlari mana shu qo'shimchalar bilan tugaydigan qishloqlar vohaning eng qadimiy joylari ekanligini ko'rsatib o'tadi. Vobkent tumanidagi Avurduvon, Buzunduvon, G'avuzduvon, Armitan, Hajivon, Kashvon, Oromitan kabi joy nomlari shular jumlasidan. Undan keyingi qadimiy qishloqlar kategoriyasiga so'g'dcha -kat (-kand, keyinchalik -kent) qo'shimchasi bilan tugaydigan qishloqlarni kiritish mumkin. Akademik V. Bartold, tarixchi Nasafiy, tilshunos Mahmud Koshg'ariylar "kat", "kand", "kent" so'zi alohida jamoa bo'lib

yashaydigan joy ma'nosida ekanligini ko'rsatishgan. Aslida "kand", "kandan" so'zi fors -tojik tilida o'yilgan, qazilgan ma'nosida bo'lib, keyinchalik obod etilgan ma'nosini anglatib, "kand", "kent" shaklida talaffuz etilgan. Xuddi shunday qishloqlar tumanda anchagina bo'lib, ular qatoriga Vobkent, Kumushkent, Shakarkent, Chorbog'kent, Yangikent, Rohkent va boshqalarni kiritish mumkin. Hozirgi Buxoro qishloqlari tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har bir qishloq yuqoridagi davrlardan birining ruhini olib kelayotganligiga guvoh bo'lamiz. Bu qishloqlarning kelib chiqish tarixi to'g'risidagi ilk ilmiy ma'lumotlar vobkentlik mashhur tarixchi Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida (943-944 yillar) keltirilgan. Bu asarining qimmatini shundaki, unda, arablar istilosigacha bo'lgan davrlardagi juda ko'p joy nomlari keltirilgan. O'zbekiston hududida sak qabilalari yashaganligini hisobga olsak, Kumushkent mahallasi hududidagi hozirgi Saktafon (aslida, Sakto'fon, ya'ni "saklar to'pi" ma'nosida) qishlog'i nomi shu qabila nomidan kelib chiqqan bo'lsa, ajab emas. Shuningdek, Toshkent shahrining eng qadimiy ko'chalaridan biri Sag'bon deb ataladi. Etnograf E. Litvinskiy Andijondagi Asaka shahrining nomi ham sak urug'ining nomidan kelib chiqqanligini yozgan. Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida, Farg'ona vodiysida So'g'd, So'g'diyona, Al-So'g'd, So'x degan anchagina qishloqlar mavjud. Bu nomlar ham qadimgi so'g'd urug'i nomidan shakllangan. Farg'ona viloyatidagi So'x tumani nomi ham shu etnotoponim bo'lishi kerak. Tuman markazi Vobkent shahriga tutash erda Mug'iyon qishlog'i bor. Narshaxiy Mug'on, Mug'iyon, Mug'lar qishloqlari Buxoroda ko'p bo'lgan, - deydi. "Mug'" so'zi arabchada "otashparast" yoki "g'ayridin" ma'nosida ishlatiladi. Aynan, arablar istilosi davrida "Mug'" deb ataluvchi qishloqlar otashparastlik dinining eng rivojlangan joylari hisoblangan. Arab istilosidan keyin Buxoroda, ayniqsa, Somoniylar sulolasi davrida hunarmandchilikning rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi. Hunarmandchilikning kuchli taraqqiy eta borishi bilan ko'pgina aholi maskanlari o'sha joy fuqarlari shug'ullanadigan kasb turi bilan atala boshlandi. Buning dalili sifatida Zargaron, Latifsobungar, Dukchilar, Chitgaron, Sartaroshlar, Halvogaron, Charmgaron, Toqido'z va boshqa qishloq nomlarini ko'rsatish mumkin. Ayniqsa, VIII-XII asrlarda ko'chmanchi arab qabilalariniig Markaziy Osiyoga ko'chib kelib o'troqlashishi bilan Arablar, Arabxona, Arabon, Quyi Arablar, Yuqori Arbon qishloqlari paydo bo'lgan. Ammo, A. Shishkin ta'kidlagandek, arablarning ko'chib kelishi davrini ma'lum bir vaqtga bog'lab qo'yish to'g'ri emas, chunki arablarning Markaziy Osiyoga qachon to'la - to'kis ko'chib kelgani hali ilmiy asosda etarlicha o'rganilgan emas. X asrdan keyin islom dini keng tarqalib, siyosiy kuch sifatida to'la namoyon bo'lganidan so'ng esa ayrim aholi maskanlari avliyo, shayx, mullava boshqa din arboblarning nomlari bilan atala boshlagan va bu jarayon juda uzoq to 20 asrning boshigacha davom etib kelgan. Niyozxo'ja, Xo'japorso, Eshonlar, Maxsumlar, Boboshex (Boboshayx), Raboti Eshon, Shexon (Shayxon), Rabotishex (Rabotishayx), Xo'jalar, So'filar, So'fidehqon kabi qishloq nomlari shu jarayonning natijasi. Qadimda juda ko'p qishloqlar nomiga «rabot», «qo'rg'on» so'zlari qo'shib, bu qo'shimchalar aholi yashaydigan makon ma'nosini anglatgan. Bunday qishloqlar toifasiga tumandagi Xosrabot, Beshrabot, Kaltarabot, Rabotisariq, Qumrabot, Chorrabot, Oqrabot va boshqa nomlarni

kiritish mumkin. XVI asr boshlaridan va XVII-XVIII asrlarda Dashti Qipchoqda (Volga va Dnepr daryolari oralig'idagi erlar) yashovchi ko'chmanchi o'zbek urug'larining katta qismi Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistonga kelib o'troqlashishi jarayoni avj oldi. Vobkentdagi Saroy, Qatag'an, Nayman, Qo'ng'iroq, Qipchoq, Badoy (Baday), O'zbekon, Totor, Qatag'an, Buchchalar, Mo'rilar, Boylik, Boyqozon, Minglar, Burqut, Qirg'izon, Xitoy, Qalmoqlar (Qalmoqon), Baqalon, Pichoqchi, Bahrin nomlari bilan ataluvchi qishloqlar ana shu o'zbek urug'lari nomidan kelib chiqqan. Ammo tuman hududidagi Xalach, Xargo'sh, Exson, Qipchoq mahalla fuqarlar yig'inlaridagi Bahrin, Saroy, Xalach, Qatag'an kabi urug'lar nomi bilan ataluvchi bir necha qishloqlar mavjudki, bu borada o'quvchida savol tug'ilishi tabiiy. Bunga sabab qilib mazkur urug'larning bir vaqtda ko'chib kelib, tumandagi turli hududlarga o'rnashib yashaganliklarini ko'rsatish mumkin. Etnograf olim A. Grebenkina ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning 70-yillarida birgina Zarafshon vohasining o'zida Nayman urug'ining nomi bilan ataluvchi 63 ta qishloq mavjud bo'lgan (Nayman so'zi mo'g'ulcha "sakkiz", - degan ma'noni bildiradi, ya'ni sakkiz o'g'il turkiy qabilani mo'g'ullar nayman deb atagan). Etnograf N. Aristov nayman qabilasi Sibirdagi Nayma daryosi nomi bilan ham atalgan bo'lishi mumkin, deydi, chunki bu urug', aslida, o'sha erda yashagan va XVII-XIX asrlarda Zarafshon vohasiga kelib, o'troqlashgan. Minglar – o'zbek millati tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri. Ming qabilasining bag'alon urug'i (bo'lagi) ham bor. Hozirgi Kumushkent mahallasi hududidagi Minglar va Bag'alon qishloqlarining yonma-yon joylashganligi ham bejiz zmas. Shuningdek, ayrim joylarda Mingbag'alon degan qishloqlar ham uchraydi. Zahiriddin Muhammad Bobur ming urug'i vakillarini minglig' deb atagan. Qipchoq va Qo'ng'iroq mahallasi hududida Bahrin (yoki Bahrincha) qishloqlari bor. Asli bahrinlar turklashgan mo'g'ul qabilalaridan biri bo'lib, ular mo'g'ullar hukmronligi davrida Dashti Qipchoqdan kelib o'rnashgan. XVIII-XIX asrlarda esa bahrinlarning katta bir qismi Toshkent, Farg'ona va Zarafshon vohalariga kelib o'troqlashgani bois, bu hududlarda ham Bahrin degan ko'pgina qishloqlar mavjud. Ehsan mahallasi hududidagi Boyqozon qishlog'i nomi «Boyovut» - mo'g'ul qabilasining bir urug'i nomidan kelib chiqqan. "Boyovut" mo'g'ulcha boylar, alplar, bahodirlar ma'nosidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbekcha va tojikchada Boy, Boydor, Boylar, Boylik, Boyot, Boyqozon, Boyto'pi, Boyho qishloqlari sifatida shakllangan. Vobkent tumanidagi Qo'ng'iroq qishlog'i, Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iroq tumani, Qozog'iston Respublikasidagi Boyqo'ng'ir nomlari qo'ng'iroq qabilasi nomidan kelib chiqqan. Tuman hududida bir nechta Xalach degan qishloqlar bo'lib, bu nom ham shu nomdagi qabila so'zidan kelib chiqqan. Xalach so'zi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Rashididdinning "Jome at-tavorix" asari va boshqa ko'p manbalarda tilga olingan. Ularda ta'kidlanishicha, xalachlar – turkiy xalqlar orasida eng janubda yashaydiganlaridan biri. Amir Temur "Temur tuzuklari" asarida: "Qaramog'imdagi qirq aymoqdan o'n ikkitasiga tang'a (alohida imtiyoz beruvchi belgi -muallif) berilsinkim, bular mening xos navvkarlarimdan bo'lib hisoblansinlar",- deydi va shu o'n ikki ulus ichida qipchoq va totor urug'ini ham sanab o'tadi. Hozirgi kunda tuman hududida mazkur urug'larning nomi bilan ataluvchi qishloqlar mavjud. Mo'g'ulistondagi bir vodiy nomi ham

Totor, Tatariston nomi ham shundan olingan. Tumandagi ko'pgina qishloqlar nomi tevarak-atrofdagi tabiat manzaralariga bevosita bog'liq holda vujudga kelgan. Bunday qishloqlar sirasiga Teshiktepa, Teraklik, Tallipushmon. Anjirbog', Adoqariq, Ponob, Kalti, Ko'liodina, Sho'robod, Usuniko'l, Jo'yiadoq, Talligandum, Tallikulux, Bozorjoyi, Chorbog'taka, Oqrabot, Yakkarabot, Yo'lbo'ldi, Rosbadan, Qumbosti, Changaron, Shakaravon, Shakarkent, Saripanja, Registonak, Regdaliyon, Rabotipoyon, Qumrabod, Bodomcha, Chorrabot, Dahana, Chuqurko'cha, Ko'shki Osiyo, Chorbog'kent, Yangikent kabilar kiradi. Vobkent nomining qayerdan va qachon kelib chiqqanligi o'quvchini qiziqtirishi tabiiy. Shu bois fanda mavjud ayrim mulohazalarni bildirishni lozim topdik. Tuman markazi qadimda Vobkana deb atalgan. Ilgari zamonlarda Buxoroda, Vobkentdan tashqari -ana qo'shimchasi bilan tugaydigan bir necha aholi maskanlari bo'lgan. Masalan, Isfana, Zandana (keyinchalik Zandani), Vardana (keyinchalik Vardonze), Shirvana, Karmana, Afshana, Xarkana va hokazo. Vobkent so'zining ma'nosiga kelganda u – Vahobkent, ya'ni Vahob qishlog'i demakdir, degan fikr ham quloqqa chalinib turadi. Akademik V. Shishkin Buxoro qishloqlari nomini kelib chiqish tarixini o'rganar ekan, kishi nomi bilan ataladigan joylarga -kent emas, balki “-obod” so'zi qo'shib ishlatilishini ko'rsatgan. Mo'minobod, Shamsiobod, Ahmadobod, Fathobod, Islomobod kabilar shular jumlasiga kiradi. Shunda Shakarkent, Toshkent, Chimkent, G'azalkent, Rohkent, Yangikent, Vobkent, Kumushkent kabi joylarning kishilar nomiga mutlaqo aloqasi yo'qligi oydinlashadi. Shu nuqtai nazardan Vobkent so'zining Vahob ismiga bog'liq emasligi isbot talab qilmaydigan holat. Vobkent so'zi Vobkentdaryo nomidan olingan bo'lsa kerak degan fikr ham to'g'ri emas. Chunki Zarafshon daryosi o'zining quyi oqimida uchga bo'linib, ulardan biri Shohrud kanali, ikkinchisi Qorako'ldaryo va uchinchisi Xitfar daryosi bo'lgan. Xitfar daryosi keyinchalik Vobkentdaryo nomi bilan yuritila boshlagan. Chunki har bir xalq o'z hududidan oqib o'tgan daryoni o'zi yashab turgan joy nomi bilan atashni ma'qul ko'rgan. Masalan, Sirdaryo qadimda Farg'ona hududida Obi Farg'ona, Toshkentda Nahri Shosh, Xo'jandda Obi Xo'jand deb atalgan. Mashhur arab sayyohi Ibn Battuta “Sayohatlar” asarida XV asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoning madaniy, siyosiy va ijtimoiy hayotini yoritgan ekan Vobkent hududini Vabkana sifatida ta'riflab, “Vabkana ariqlar va bog' - rog'lari bo'lgan go'zal shahar ekan”, - deb yozgan. (“Fan va turmush”, 1989 yil, 9-son). Xo'sh, Vabkana so'zining asli ma'nosini qanday tushunish kerak? Bu savolga aniq javob berishni olimlar hukmiga havola qilgan holda, shuni aytish lozimki, har bir joy nomining etimologiyasini aniqlash maxsus ilmiy izlanishlarni talab etadi. Qolaversa, Moskvadek azim shahar va Volgadek buyuk daryo nomlarining kelib chiqishi ma'nosi hanuzgacha fanda ma'lum emas. Narshax yoki Narchoq qishlog'i ham ko'pchilikka tanish. Muqanna boshchiligidagi “Oq kiyimlilar” arablarga qarshi ko'rashganda, shu qishloqdan istehkom sifatida foydalanishgan. Shuningdek, ushbu qishloqda mashhur tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy (X asr) tavallud topgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, biz tumandagi qishloq nomlaridan ayrimlarining kelib chiqishi to'g'risida to'xtaldik, xolos. Ular tarixini o'rganish shundan dalolat beradiki, o'zbek millatining tarkib topishi uzoq, og'ir va murakkab jarayonlarda kechgan. Ammo shuni

alohida ta'kidlash lozimki, qishloqning urug' nomi bilan atalishi qadimda u erda faqat shu urug' vakillari yashab kelgan, degan ma'noni bildirmaydi. Chunki har bir qishloqda turli urug' vakillari birgalikda yashayvergan. Shuning uchun ham uni tarixiy va lingvistik tadqiqi bilan birga etimologik tadqiqini ham o'rganish bugungi kun uchun dolzarb masalaga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. Қиличев Б. Бир топоформат ҳақида // Филология масалалари. Т.: 2007.
2. Ҳожиёв А. Тил қурилишининг асосий бирликлари юзасидан мулоҳазалар// Ўзбек тили ва адабиёти. 2004, 5-сон, 33-43-б.
3. Дўсумов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1977.
4. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Т.: Ўқитувчи. 1988. 165-б.
5. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. Toshkent, 2009, 396-b.